



PEDAGOGIK MAHORAT - O‘QITUVCHI FAOLIYATINING ASOSIY SHARTI SIFATIDA

Kalandarova Tozagul

UrDU Pedagogika va psixologiya kafedrasida katta o‘qituvchisi

Annatsiya: Ushbu maqolada pedagogik mahoratning o‘qituvchi faoliyatidagi o‘rni to‘g‘risida batafsil ma’lumotlar keltirilgan.

Аннотация: В данной статье представлена подробная информация о роли педагогического мастерства в деятельности учителя.

Annotation: This article provides detailed information about the role of pedagogical skills in the activities of the teacher.

Kalit so‘z: Pedagogik mahorat, pedagogik faoliyatni, jamiyat, pedagogik samara.

Ключевое слово: Педагогическое мастерство, педагогическая деятельность, общество, педагогический эффект.

Keyword: Pedagogical skill, pedagogical activity, society, pedagogical effect.

Inson faoliyatining boshqa turlari kabi pedagogik faoliyat ham o‘z xususiyatlari bilan bir-biridan ajralib turuvchi: maqsad, ob‘ekt va sub‘ekt va vositalardan tashqil topadi.

Eng avvalo, pedagogik maqsadning o‘ziga xosligini tushunishga harakat qilamiz. Ular quyidagilardan iborat:

1. Pedagogik faoliyatning maqsadi jamiyat tomonidan belgilanadi, ya’ni pedagog faoliyatning natijasi jamiyat manfaatlari bilan bog‘liqdir. Uning mehnati yoshlar shaxsini har tomonlama kamol toptirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur. Pedagogik faoliyat avlodning ijtimoiy uzviyligini (ketma-ketligini) ta’minlaydi, bir avlod tajribasini ikkinchi avlodga o‘tkazadi, yoshlarni ijtimoiy munosabatlar tomon yo‘llaydi, ijtimoiy tajriba orttirish uchun insondagi tabiiy imkoniyatlarni ro‘yobga chiqaradi.

2. Pedagog faoliyati doimo shaxs faoliyatini boshqarish bilan bog‘liq. Bunda pedagogik maqsad o‘quvchi maqsadiga aylanishi muhimdir. Unga erishishi osonlikcha bo‘lmaydi. Pedagog o‘z faoliyati maqsadini va unga erishish yo‘llarini aniq tasavvur qilish va maqsadga erishish o‘quvchilar uchun ham ahamiyatli ekanligini ularga anglata olish zarur. Gyote ta’kidlaganidek, "Ishonch bilan gapir, ana shunda so‘z ham, tinglovchilarni mahliyo qilishi ham o‘z-o‘zidan kelaveradi".

3. Pedagogik (ta’lim, tarbiya) jarayonida o‘quvchi faoliyatini boshqarish shuning uchun ham murakkabki-pedagog maqsadi doimo o‘quvchi kelajagi tomon yo‘naltirilgan bo‘ladi. Bu maqsadni o‘quvchidan ko‘ra pedagog yaqqolroq tasavvur qiladi. O‘quvchi esa ko‘p hollarda, hayotiy tajribasi etishmasligi sababli hozirgi hayot, shu bugun tashvishlari bilan yashaydi, kelajakni esa to‘la tasavvur qila olmaydi. Bunyodkor pedagoglardan biri SH. A. Amonashvili bu nomuvofiqlikni "tarbiyadagi asosiy fojia" deb ataydi. Buni anglagan



holda, mohir pedagoglar o'z faoliyati mantig'ini o'quvchilar ehtiyojlariga muvofiq holda loyihalaydilar. Hamkorlik pedagogikasining tub mohiyatii ham ana shundan iborat.

Pedagoglik kasbini tanlagan kishi avvalo sog'lom bo'lishi, so'zlarni to'g'ri va yaxshi talaffuz qila olishi, bosiq va asablari joyida bo'lishi, boshqalar bilan muomalada o'zini tuta olishi zarur. SHuningdek, o'qituvchida bolalarni yoqtirish, ular bilan ishlashga mayli borlik, xushmuomalalik, kuzatuvchanlik, keng fikrlay olish, tashkilotchilik, o'ziga va boshqalarga nisbatan talabchanlik kabi shaxsiy sifatlar mavjud bo'lishi zarurdir.

Pedagogik faoliyat – yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun xalq, davlat oldida javob beradigan, bolalarga ta'lim- tarbiya beri shishi Bilan shug'ullanadigan va bu ishga maxsus tayyorlangan odamlarning mehnat faoliyatidir. Pedagogik faoliyatga tayyorgarlik ko'rayotgan yoshlar uning ana shunday xususiyatlarini bilishlari lozim. O'qituvchilik ixtisosining bu xususiyatlari uning kasbnomasida ifodalanadi.

Pedagogik mehnat ustalari maktabda vujudga keladi, bolalar bilan muomalada tarbiyalanadi. Pedagogik mahorat nima va u nimalardan tashkil topadi? Bu - faxm –farosat va bilimlarning chinakkam ilmiyligi, tarbiyadagi qiyinchiliklarni engishga qodir bo'lgan nufuzli raxbarlik, bolalar qalbining qandayligini his qilish mahorati, ichki dunyosi nozik va zaif bo'lgan bola shaxsiga moxirlik bilan avaylab yondashish, donalik va ijodiy dadillik, ilmiy tahlil, hayol va fantaziyaga bo'lgan qobiliyat mujassamidir.

Pedagogik mahoratga pedagogik bilimlar, faxm – farosat bilan bir qator da pedagogik texnika soxasidagi bilimlar ham kiradiki, ular tarbiyaga ozroq kuch sarflab, ko'proq natijalarga erishish imkoniyatini beradi.

Pedagogik mahorat nazariyasi va metodikasini ishlab chiqilmaganligi shunga olib keladiki, pedagoglarning har biri o'zicha, paypaslab ijodiy izlanish olib boradi. Ayni bir xil savollarni: bolalar bilan, pedagoglar jamoasi bilan qanday qilib til topish mumkin? Qanday qilib qisqa muddat ichida bolalar o'rtasidagi munosabatlarning haqqoniy manzarasiga erishmoq kerak? Bolalarni pedagogik talablarni bajarishga qanday qilib majbur etish mumkin? Qanday qilib yaxshi pedagogik ruhiyatni saqlab qolish va o'z kuch quvvatini oqilona sarflash mumkin? – degan savollarni muttasil takrorlaydi va xakozo.

Yuqorida aytib o'tilgan masalalarni xal qilish pedagogdan odatdan tashqari kuch – g'ayratni, qat'iyatni, tirishqoqlikni, tadqiqotlarni olib borishga intilishni, yangi vaziyatga, yangi jamoaga kirish qobiliyatini, samimiyatni, to'g'rilik va halollikni, o'tkir aql – idrokni, bir vositani boshqasi bilan tekshirib ko'rish malakasini, o'z topilmalarining kimmatini tiklash qobiliyatini talab qiladi.

Albatta, pedagogik samaraga erishishda nafaqat qobiliyatlar, balki shaxsdagi uddaburonlik, mehnatsevarlik, jonkuyarlik, kamtarinlik kabi bir qator sifat va hislatlar ham muhim o'rin egallaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. -T.: "Iqtisod-moliya", 2010-312 b.
2. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. Darslik. - T.: "Iqtisod-moliya", 2011425 b.